

Husayn Voiz Koshifiyning komil inson g'oyasi

Mushtariy Ixtiyorjon-qizi Sotvoldiyeva
Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlari keng muhokama qilinadi. Husayn Voiz Koshifiyning asarlaridagi axloqiy qarashlari, insonlarni komil inson qilib kamolga yetkazishda axloqni o'rni va allomani ma'naviy merosining bugungi kunda muhim tarbiyaviy jihatga ega ekanligi asoslab berilgan. Bu maqolada komil inson g'oyasi ilgari suriladi. Husayn Voiz Koshifiy insonni mehnat, tarbiya orqali yetuklikka chaqirgan.

Kalit so'zlar: Husayn Voiz Koshifiy, ilmiy meros, shaxs tarbiyasi, ta'lim, axloq, ma'naviy meros, axloq, matonat, adolat, insoniy fazilatlar

Husain Voiz Kashifi's idea of a perfect person

Mushtariy Ikhtiyorjon-kizi Sotvoldiyeva
Scientific advisor: M.M.Mirzakarimova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article discusses the moral views of Husain Voiz Kashifi in detail. The moral views in Husain Voiz Kashifi's works, the role of morality in perfecting people as perfect people, and the fact that the spiritual heritage of the scientist has an important educational aspect today are substantiated. This article puts forward the idea of a perfect person. Husain Voiz Kashifi called on people to mature through work and upbringing.

Keywords: Husain Voiz Kashifi, scientific heritage, personal upbringing, education, morality, spiritual heritage, morality, fortitude, justice, human qualities

"Yomonlik-butun nuqsinar majmuidir" Husayn Voiz Koshifiy

Husayn Voiz Koshifiy "Insonni dunyodagi eng yuksak mavjudot" deb biladi. U yoshligidanoq so'zlarga suxandon bo'lgan. XV asr Markaziy Osiyo va Xuroson madaniy muhitida yetishib chiqqan yirik mutafakkirlardan biri Husayn Voiz Koshifiydir. U Temuriylar davrida yashab ijod qilgan va samarali faoliyat yuritgan qomusiy olim sifatida tanilgan. Tarixi manbalarga ko'ra, Voiz taxminan 1440-yillar atrofida Sabzavor hududida tavallud topgan va 1505-yilda vafot etgan. Yoshligidan ilmga chanqoq bo'lib; arab, fors va turkiy tillarni mukammal o'zlashtirgan. Bundan

tashqari falsafa, matematika, adabiyot va din ilmlarini puxta egallagan. Ayniqsa, notiqlik mahorati bilan mashhur bo'lgan Voiz sifatida katta obro' qozongan. Uning "Axloqi Muhsiniy" asari juda mashhur bo'lib, unda inson fazilatlarini, axloqiy meroslari va komil shaxs tarbiyasi haqida yetarlicha fikr yuritiladi. Mutafakkir insonni yaratilganlar ichida eng ulug' mavjudot sifatida baholaydi. Uning to'liq ismi Husayn ibn Ali Bayhaqiy Sabzavoriy bo'lib, Kamoliddin laqabi bilan ham tanilgan. Koshifiy esa adabiy taxallusi hisoblanadi. Ayrim manbalarda Alisher Navoiy o'zi yozgan madhiya va marsiyalarni faqat Koshifiyga o'qitibgina ko'ngli taskin topgani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Abdurahmon Jomiy vafotiga Alisher Navoiy yozgan quyidagi marsiya bunga dalil bo'ladi.

"Ul jumladin huruf roqimi-bu marsiya bilan tarixni aytib, Husayn Boyqaro oliy majlislarni o'tkazdi va hukm bo'ldikim, mavlono Husayn Voiz minbar ustida o'qidi. Ushbu ma'lumotlarda shuni xulosa qilish kerakki, Husayn Voiz Koshifiy nafaqat ilmi, balki odob-axloqi yetuk bo'lganligi uchun hatto Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro uni hurmat qilib, majlislarda uning va'z - nasihatlarini tinglashni odat deb bilishgan. XVI asrning mashhur tarixchilaridan biri Xondamir o'z zamondoshi Koshifiy haqida bir necha asarlarida katta e'tibor bilan tilga olib, shunday muhim ma'lumotlar beradi: "Mavlono Kamoliddin Husayn Voiz turli xil ma'qul ilmlar va turlicha naql etilgan fanlardan tamom foyda olgan va bahramanddur...." Koshifiy umri davomida o'rgangan ilmlarga ishinganda holda ko'plab asarlar yozib qoldirgan, uning fanlarga oid 40dan ortiq asari ta'lif qilingan. Jumladan, "Axloqiy Muhsiniy" (Yaxshi xulqlar), "Risoi Hotamiya", "Anvori Suhayliy", "Axloqi Karim", "Javohirnom", "Tafsiri Husayniy", "Futuvvatnomai Sul-toniy" kabi asarlar.

Koshifiy ijodi asosan uning mashhur asari - "Axloqi Muhsiniy" orqali keng yoritilgan. Ushbu asar 1495-yilda yozilgan bo'lib, 40 bobdan iborat. Asarda ibodat, ixlos, sabr, adolat, saxovat, podshoh odobi, davlat boshqaruvi kabi masalalar keng yoritilgan. Tadqiqotlarga ko'ra, Koshifiy axloqni 3 asosiy yo'nalishda talqin qilgani ta'kidlanadi: Shaxsiy axloq (insonni ichki pokligi), ijtimoiy axloq (jamiyatdagi munosabatlar), siyosiy axloq (davlat boshqaruvi va adolat). Uning qarashlari islomiy ta'limot, tasaffuviy g'oyalar va falsafiy mantiq uyg'unligi asosida shakllangan.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: Tarixiy tahlil, qiyosiy-falsafiy tahlil, matnli kontent tahlil, tizimli yondashuv. Bu orqali Koshifiy asarlaridagi asosiy axloqiy kategoriyalar aniqlandi va ularni o'zaro bog'liqligi o'rganildi.

Tahlillar natijasida Koshifiy ta'limotida komil inson quyidagi fazilatlar orqali shakllanishi aniqlandi: Adolat -jamiyat barqarorligining asosi. Koshifiyning fikricha, adolatsiz davlat inqirozga yuz tutadi. Halollik va vijdon -insonning ichki nazirati, vijdon va uning barcha harakatlarini tartibga soladi. Sabr va matonat -qiyinchiliklarga bardosh berish komillik belgisi sifatida talqin qilinadi. Sahovat va bag'rikenglik-

ijtimoiy totuvlikka xizmat qiluvchi fazilatlar sifatida ko'riladi va umumlashtirilgan tahlil natijasi keltiriladi: Azloqiy tamoyil, ijtimoiy ahamiyat, adolat, davlat barqarorligi, xalollik, jamiyat ishonchi, kamtarlik va ma'naviy poklik.

Koshifiy axloqni nafaqat shaxsiy masala sifatida emas, balki ijtimoiy tizimni tartibga soluvchi kuch sifatida baholaydi. Uning qarashlarida siyosat va axloq ajralmas tushunchalardir. Agar davlar rahbari axloqiy me'yorlarga amal qilsa, jamiyatda tinchlik qaror topadi. Bu g'oyalar zamonaviy demokratik jamiyat nazariyalari bilan hamohangdir. Shaxsning ma'naviy kamoloti jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko'rsatiladi.

Husayn Voiz Koshifiy axloqiy ta'limoti sharq falsafiy merosining muhim qismi hisoblanadi. U komil inson konsepsiyasini ishlab chiqqan va uni jamiyat rivoji bilan bog'lagan. Uning g'oyalari: Ma'naviy tarbiyani kuchaytirish, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash adolatli jamiyat qurish masalalarida nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Koshifiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqdava zamonaviy axloqshunos tadqiqotlarida muhim manba sifatida baholanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arboblar.uz. "Husayn Voiz Koshifiy" (qisqa biografik ma'lumotlar va merosiga doir izohlar).
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. *Science and Education*, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. *Journal of Institutional Research South East Asia*, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. *Science and Education*, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. *Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology*, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. *Science and Education*, 6(10), 89-93.

9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ У^ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.

10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(7), 11-15.

11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. *Technical Science Integrated Research*, 1(6), 8-10.

12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 8-11.

13. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. *Перспективы науки и образования*, (6 (72)), 420-436.

14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.

15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 51-55.

16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. *Science and Education*, 5(3), 264-269.

17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. *Science and Education*, 5(4), 278-282.

18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.

19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.

20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.

21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKOZLIK KO'NIKMAALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.

22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.

23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. *INTERNATIONAL*

SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY, 1(1), 63-65.

24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. Telematique.-2022.-S, 7128-7131.

25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 216-222.

26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. Академические исследования в современной науке, 2(8), 92-94.

27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. International Journal of Human Computing Studies, 5(3), 15-17.